

Elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun _____ -sonli SHARTNOMA

_____ sh.

«___» _____ 202__ yil

"NAVOIYURAN" Davlat korxonasi, keyinchalik "Ijrochi" deb yuritiladi, _____ yildagi _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ shaxsida bir tomondan, va _____ keyinchalik "Buyurtmachi" deb yuritiladi, _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ shaxsida, ikkinchi tomondan, elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun ushbu shartnomani tuzishdi:

1. SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1 "Ijrochi" elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan elektr iste'moli hajmlari chegarasida elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha "Buyurtmachi"ga xizmatlar ko'rsatish majburiyatini, "Buyurtmachi" esa ushbu shartnoma shartlari bo'yicha elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Xizmatlar ko'rsatish muddati 20__ yil «01» yanvardan 20__ yil «31» dekabrgacha

2. XIZMATLARGA HAQ TO'LASH

2.1 Elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlarning narxi elektr energiyasi iste'moli qiymati bilan aniqlanadi va 1 kVt iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qo'shimcha qiymat solig'i bilan _____ so'mni tashkil etadi.

2.2 "Ijrochi"ning elektr tarmoqlari orqali "Buyurtmachi"ning elektr qurilmalari oyiga o'rtacha _____ kVt elektr energiyasini iste'mol qiladi, bunda yillik hajm o'rtacha _____ kVtni yoki _____ (_____) so'mni tashkil qiladi.

2.3 "Buyurtmachi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haqiqiy miqdori balans mansubligi chegarasida belgilangan hisobga olish asboblari ko'rsatmalari bo'yicha aniqlanadi va ushbu miqdorga asosan har oyning yakunida to'lov amalga oshiriladi.

2.4 Elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish tarifi belgilangan tartibda Navoiy viloyati Moliya boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Tariflar o'zgargan hollarda, hisob-kitoblar ular amal qilishni boshlagan paytdan yangitdan tasdiqlangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

2.5 "Buyurtmachi" yakuniy hisob-kitoblarni hisob-kitob fakturasiga asosan hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanagacha amalga oshiradi. Har oyning birinchi sanasida "Buyurtmachi" "Ijrochi" bilan birga solishtirish dalolatnomasini tuzgan holda o'zaro hisob-kitoblarni bajarishi shart.

2.6 Agar "Buyurtmachi" "Ijrochi"dan qarzdor bo'lsa, oldindan to'lov qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltiriladi va bu bo'nak (avans) to'lovi sifatida hisoblanmaydi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1 "Ijrochi" quyidagilarga majbur:

- "Buyurtmachi"ga elektr ta'minoti shartnomasiga muvofiq **0.7 kW.soat** ga teng bo'lgan hajmda (foydalanish uchun ruxsat etilgan quvvat), belgilangan chegaralarda elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

3.2 "Buyurtmachi" quyidagilarga majbur:

- balans masulligi chegarasida hisobga olish asboblari o'rnatish;
- amaldagi "Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari" (TEQQ), "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari" (EEFQ) va boshqa normativ-texnik hujjatlarga muvofiq o'zining elektr qurilmalarini ishlashini ta'minlash;
- "Iste'molchilarga elektr energiyasini yetkazib berish tartibi to'g'risidagi NIZOM"ga rioya etish;
- shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun oldindan to'lovni va to'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- elektr energiyasi hisoblagichlari ko'rsatgichlarini olish uchun "Ijrochi" vakillarining hisobga olish asboblari to'lovlarsiz borishini ta'minlash;
- elektr energiyasidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan avariya, energiyani hisobga olish asboblari dagi nosozliklar va boshqa buzilishlar to'g'risida "Ijrochi"ga xabar berish;

- ruxsat etilgan quvvat hajmiga va elektr iste'molining belgilangan rejimiga rioya etish;
- ruxsat etilgan quvvatdan oshsa yoki inshootlar, binolar va xonalari rekonstruksiya qilinsa, ulanish uchun yangi texnik shartlarni so'rab olish;
- obyekt boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan, sotilgan hollarda, qarzdorlikni albatta so'ndirgan holda, elektr energiyasini yetkazib berganlik uchun "Ijrochi" bilan o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish (taqqoslash)ni amalga oshirish;
- ushbu ulanishga texnik shartlari va "NAVOIYURAN" Davlat korxonasi bosh energetigi bo'limi tomonidan berilgan ruxsatnomaga ega bo'lgan boshqa "Buyurtmachi"larni o'z tarmoqlariga ulash.

3.3 "Buyurtmachi"ga quyidagilar man etiladi:

- "NAVOIYURAN" Davlat korxonasi bilan kelishilgan elektr ta'minoti loyihasida ko'rsatilmagan elektr jihozini o'z tarmoqlariga ulash;
- elektr iste'moli limitdan va belgilangan (yoki foydalanish uchun ruxsat etilgan) quvvatdan oshib ketish;
- hisobga olish sxemasini o'zgartirish va "Ijrochi" bilan yozma kelishuvsiz hisobga olish asboblarini almashtirish;
- texnik shartlar va "NAVOIYURAN" Davlat korxonasi bosh energetigi bo'limi (BEB) tomonidan berilgan ruxsatnomaga ega bo'lmagan o'zga iste'molchilarni o'z tarmoqlariga ulash.

3.4 Tomonlar bir-birlarini bank rekvizitlari, pochta va yuridik manzillari o'zgartirish to'g'risida xabardor qilishlari shart.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1 Elektr qurilmalarining holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha tomonlarning javobgarligi elektr ta'minoti shartnomasiga ilova qilingan "Tarmoqlar va jihozlarning holati uchun xizmat ko'rsatish va javobgarlik chegaralarini belgilash dalolatnomasi" bilan belgilanadi.

4.2 Elektr energiyasini yetkazib berish uchun o'z vaqtida haq to'lanmasa, "Buyurtmachi" har bir o'tib ketgan kun uchun to'lov hujjati bilan bankka taqdim etilgan o'tkazib yuborilgan summaning 0,1% miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning miqdori o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50% dan oshmasligi kerak.

4.3 Shartnomaning bekor qilinishi "Buyurtmachi"ni ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzdorlikni to'liq so'ndirmaslikdan ozod etmaydi.

4.4 "Ijrochi" elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarining qiymatlari uchun javobgar hisoblanmaydi.

4.5 "Ijrochi" tizimda avariya yuzaga kelsa va shu bilan bog'liq bo'lgan "Buyurtmachi"ning elektr iste'molchilari ishdan chiqqanda, elektr energiyasi yetkazib berilishini to'xtatib qolishi va kuchlanish qiymatlarining o'zgarishlari uchun javobgar hisoblanmaydi.

4.6 Mazkur shartnoma shartlari bajarishda, shuningdek unda aytib o'tilmagan hollarda, "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari", O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik subyektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, tomonlar javobgar hisoblanadi.

5. ALOHIDA SHARTLAR

5.1 Ushbu shartnoma "Ijrochi" elektr tarmog'idan, elektr energiyasidan foydalanganda, elektr ta'minoti shartnomasi bilan teng ravishda majburiy hisoblanadi.

5.2 Ushbu shartnomada aytib o'tilmagan barcha masalalar bo'yicha tomonlar amaldagi "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari", Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ hujjatlariga amal qilishlari shart.

5.3 "Ijrochi" quyidagi hollarda "Buyurtmachi"ga elektr energiyasi yetkazib berishni to'xtatish huquqiga ega:

- elektr energiyasi yetkazib berilganligi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lanmaganda;
- ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda ko'rsatilgan xizmatlar uchun oldindan haq to'lanmaganda;
- elektr energiyasini hisobga olish asbobida buzilishlar (nosozliklar) aniqlanganda;
- "Ijrochi" vakillariga "Buyurtmachi"ning elektr energiyasini hisobga olish asboblarini tekshirishga ruxsat etilmaganda;
- iste'molchilarni hisoblagichsiz yoki elektr ta'minoti sxemasini buzgan holda "Ijrochi" tarmoqlariga ulanganida;
- TEQQ, XTQ va EEFQ larga muvofiq hujjatlar taqdim etilmaganda;
- mazkur shartnomaning 3.2 va 3.3 bandlari buzilganda;
- avariya holati yuzaga kelganda;

- elektr ta'minoti bo'yicha shartnomasiz elektr energiyasidan foydalanilgan hollarda;
- Hududiy elektr tarmoqlari tashkilotning yozma talabi bo'yicha.

5.4 To'lov amalga oshirilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni tarmoqdan uzib qo'yish, elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha xizmatlar va avval uzib qo'yilgan qurilmalarning tarmoqqa qaytadan ulanishi xizmatlar to'langan holda "Buyurtmachi" mablag'lari hisobidan "Ijrochi"ning mas'ul vakili tomonidan amalga oshiriladi.

5.5 "Ijrochi" elektr tarmoqlarining rejali ta'mirlashlari munosabati bilan elektr ta'minotidagi uzilishlar to'g'risida 3 kundan kam bo'lmagan muddatda "Buyurtmachi"ni ogohlantiradi.

5.6 Shartnoma "Buyurtmachi" tomonidan majburiyatlar bir necha marotaba bajarilmagan hollarda, belgilangan tartibda bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLARI

6.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning manfaatdor shaxslari, direktorlari, mansabdor shaxslari, xodimlari yoki boshqa vakillari, subpudratchilar, agentlar va tomonlar nazorat qiladigan boshqa shaxslar pul to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'lashda yordam bermaydilar va/yoki biron-bir nomaqbul manfaat yoki boshqa nomuvofiq maqsadlarni qo'lga kiritish, ushbu shaxslarning xatti-harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita har qanday pul yoki qimmatbaho narsalarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda, Tomonlar, ularning manfaatdor shaxslari, direktorlari, mansabdor shaxslari, xodimlari yoki boshqa vakillari, subpudratchilar, agentlar va tomonlar nazorat qiladigan boshqa shaxslar, Shartnoma maqsadlari uchun amal qiladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan pora berish/olish, tijorat pora berish kabi harakatlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun hujjatlari talablarini buzuvchi harakatlarni sodir etmaydilar.

6.2 Agar Tomonlardan biri shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalari buzilganligi bilsa yoki buzilishi sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini, shartnomaning ushbu bo'limi talablari buzilishi sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi tasdiqlanmagunga qadar to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma ravishda xabar berilgan kundan boshlab 14 kalendar kuni ichida yuborilishi kerak.

6.3 Agar tomonlardan biri ushbu bo'limda taqiqlangan harakatlardan tiyilish majburiyatlarini buzsa va/yoki boshqa tomon buzilish shartnomada ko'rsatilgan muddatda sodir bo'lmagan yoki sodir bo'lmasligi haqidagi tasdiqni olmagan bo'lsa, boshqa tomon bitimni bekor qilish to'g'risida yozma xabar yuborish orqali shartnomani bir tomonlama to'liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega. Shartnomaning ushbu bo'limi qoidalarga muvofiq shartnomani bekor qilish tashabbusini bildirgan tomon, Shartnomaning bekor bo'lishi natijasida yuzaga kelgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

7. FORS-MAJOR

7.1 Tabiiy ofatlar, urushlar natijasida elektr stantsiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarishi pasayganda, hukumat tomonidan tegishli savdo operatsiyalarini talab etadigan qarorlar qabul qilinganda, "Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot" tomonidan elektr energiyasi ta'minoti tizimida cheklashlar kiritilganda, ushbu shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan boshqa tomonlarning irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarda, hech bir tomon o'z vazifalarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar hisoblanmaydi.

7.2 Agar ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan holatlar bevosita shartnomada belgilangan muddatlarda majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir etsa, unda bu muddatlar fors-major holatlarining amal qilish vaqtiga qadar suriladi.

8. BAHSLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1 Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan barcha bahslar shikoyat taqdim etish tartibida hal etiladi. Bahslar shikoyat taqdim etish tartibida hal etilmasa, materiallar javobgar joylashgan joydagi iqtisodiy sudda ko'rib chiqiladi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1 Mazkur shartnoma har ikkala tomondan imzolanadi va 20__ yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.2 Shartnomadagi o'zgarishlar faqat mas'ul shaxslar tomonidan ushbu shartnoma yozma rasmiylashtirilib, imzolanganidan keyin amal qiladi.

9.3 Shartnomaning amal qilish muddati uzaytirilganda, tomonlar faqat ikkala tomonning roziligi bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

9.4 Mazkur shartnoma 2 nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzilgan.

Elektr ta'minoti shartnomasi bekor qilinganda (yoki uning amal qilish muddati vaqtincha to'xtatilganda) ushbu shartnomaning amal qilishi avtomatik tarzda bekor qilinadi.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA HISOB-KITOB RAQAMLARI

“IJROCHI”

“BUYURTMACHI”

"NAVOIYURAN" Davlat korxonasi

210100 Navoiy sh., Inspektor ko'ch. 7 uy

BANK REKVIZITLARI:

ТИФ Узмилий банк АЖ “Навий амалиёти”

Банк хизматлари маркази

h/r 20210000900305623001

MFO: 00450

STIR: 201204514

OKED: 07210

NDS to'lov kodi 312010031235

Tomonlar rekvizitlarning ushbu bandida ko'rsatilgan barcha o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor etishlari shart

“IJROCHI”

“BUYURTMACHI”

«_____» _____ 202__ y.

«_____» _____ 202__ y.